



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PF-19-son Farmoni hamda Prezident Administratsiyasining “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoyishi ijrosi haqida**

Ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni jadallashtirish, ta’lim tashkilotlari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini maqbullashtirish maqsadida **buyuraman:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” PF-19 Farmoni, 2024-yil 2-fevraldagi “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-54-sonli Qarori Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 7-fevraldagi AF-17 farmoyishi (keyingi o‘rinlarda – farmoyish) vazir o‘rinbosarlari, departament, boshqarma va bo‘limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar direktorlari tomonidan rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

#### **1. Quyidagilar:**

Farmoyish bilan davlat muassasasi shaklida “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisi (keyingi o‘rinlarda – Loyiha ofisi) tashkil etilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridan jami 16 ta shtat birliklari 2024-yil 13-fevraldan qisqartirilib, 1 ta shtat Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy saylov komissiyalari hamda 15 ta shtat birligi “Ta’lim sohasidagi loyihalar markazi” loyiha ofisiga o‘tkazilishi inobatga olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridan qisqartirilishi belgilangan shtat birliklari soni **1-ilovaga muvofiq;**

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari

(Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridan tashqari) namunaviy tuzilmasi **2-ilovaga muvofiq;**

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari (Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridan tashqari) tuzilma bo‘yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni **3-ilovaga muvofiq;**

5. Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi **4-ilovaga muvofiq;**

6. Qashqadaryo va Samarqand viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalarining tuzilma bo‘yicha lavozimlar nomi va shtat birliklari soni **5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

7. **Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi** (I.Sharipov) **Moliya-iqtisod departamenti** (I.Siradjev) bilan birgalikda Loyiha ofisi hamda saylov komissiyasining boshqaruv xodimlari umumiy sonini vazirlik tizimidagi tashkilotlar shtat birliklarini tegishli **16 nafarini** qisqartirish hisobiga shtat birliklarini shakllantirish choralarini ko‘rsin.

8. **Moliya-iqtisod departamenti** (I.Siradjev), **Yuridik boshqarmasi** (X.Asrorov), **Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi** (I.Sharipov) Loyiha ofisiga moliyaviy-xo‘jalik, yuridik ta‘minot, ijro va mehnat intizomiga rioya etilishi masalalari bo‘yicha ko‘maklashsin.

9. **Xo‘jalik bo‘limi** (A.Shernazarov):

**Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi** (J.Mannonov) bilan birgalikda bir hafta muddatda loyiha ofisi faoliyat samaradorligini tashkil etish uchun zarur moddiy-texnik vositalari, mebel va kanselyariya jihozlari bilan ta‘minlash choralarini ko‘rsin;

Loyiha ofisi uchun zarur hollarda vazirlik tizimidagi tashkilotlar balansidagi transport vositalaridan foydalanilishini nazarda tutsin.

10. **Moliya-iqtisod departamenti** (I.Siradjev), **Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi** (F.Jamuratova) Loyiha ofisi joylashgan maydonni saqlash, shu jumladan kommunal to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlar vazirlik hisobidan amalga oshirilishini nazarda tutsin.

11. **Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi** (I.Sharipov) hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda hududiy boshqarmalarning tuzilmalari bo‘yicha shtatlar jadvalini mazkur buyruqning **2-, 3-, 4-, 5-ilovalari** bilan tasdiqlangan namunaviy tuzilma, lavozimlar nomi va shtat birliklariga muvofiq belgilangan tartibda tasdiqlanishi hamda tegishli iqtisodiyot va moliya organlarida ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlash;

shtat birliklari qisqarayotgan xodimlarga amaldagi mehnat qonunchiligi doirasida ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirish xatlari berish hamda qonunchilik hujjatlariga muvofiq to‘lovlarni amalga oshirish;

mavjud shtatlarning qisqarishi natijasida bo'shab qolayotgan xodimlarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish;

shtat birliklari maqbullashtirilishi natijasida tizimdagi xodimlarning funksional majburiyatlari, malaka tavsiflari va nomenklaturani qayta taqsimlanishini hisobga olib, 2024-yil 11-martga qadar qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.

12. **Devonxona** (H.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda departament, boshqarma va bo'limlar, hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalarga yetkazilishini ta'minlasin.

13. "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 19-sentabrdagi 211-sonli buyrug'iga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 332-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

14. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

**Vazir**



**X.Umarova**


Toshkent sh.,  
2024-yil 12 - fevral,  
38-son

O'zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining  
2023-yil 12 - fevraldagi  
38-sonli buyrug'iga  
1-ILOVA

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,  
Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmalaridan qisqartirilishi belgilangan shtat birliklari soni**

<b>№</b>	<b>Tarkibiy bo'linma va lavozim nomi</b>	<b>Shtat birligi</b>
1	Sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish sho'basi yetakchi mutaxassisi	<b>12</b>
2	O'quvchilarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho'basi bosh metodisti	<b>4</b>

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar  
va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari (Qashqadaryo va Samarqand viloyatlaridan tashqari)  
NAMUNAVIY TUZILMASI**







T/r	Tarkibiy bo'linmalar va lavozimlar nomi	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Surxonadaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'ona viloyati	Xorazm viloyati	Toshkent shahar	Jami
52	Bo'lim boshlig'i	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
53	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
54	Bosh mutaxassis	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	24
55	Yetakchi mutaxassis	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
	<b>Buxgalteriya hisobi va davlat xaridlari sho'ba</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>48</b>
56	Sho'ba mudiri - Bosh hisobchi	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
57	Bosh mutaxassis (hisobchi)	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
58	Yetakchi mutaxassis (hisobchi)	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	24
	<b>Ta'lim tashkilotlari infratuzilmasini rivojlantirish sho'ba</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>60</b>
59	Sho'ba boshlig'i	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	12
60	Bosh mutaxassis	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	24
61	Yetakchi mutaxassis	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	24
	<i>Boshqaruv xodimlari</i>	53	52	51	51	51	52	53	51	53	53	52	52	624
	<i>Metodistlar</i>	26	26	25	26	24	26	26	24	26	26	26	25	306
	<b>Jami</b>	<b>79</b>	<b>78</b>	<b>76</b>	<b>77</b>	<b>75</b>	<b>78</b>	<b>79</b>	<b>75</b>	<b>79</b>	<b>79</b>	<b>78</b>	<b>77</b>	<b>930</b>

**Izoh:**

\* Belgilangan mas'ul xodimlar shtat birliklari soni 2-4 nafar bo'lgan hollarda **sho'ba**, 5 va undan ortiq bo'lgan hollarda **bo'lim** tashkil etiladi.

\*\* Shtat birliklari soni 1 nafardan iborat bo'lganda bosh mutaxassis lavozimi kiritiladi (*metodist lavozimi bundan mustasno*) hamda mehnatga haq to'lash shartlari bo'yicha sho'ba boshlig'iga tenglashtiriladi.